



PHILOSOPHICAL AND ANTHROPOLOGICAL ANALYSIS THE RELATIONSHIP BETWEEN HUMANS AND NATURE IN THE CONTEXT OF POSTHUMANIST ETHICS: THE DILEMMA OF ECOCENTRISM AND TECHNOCENTRISM

Khusniddin Akbarovich Alikulov

Head of Department, Center for Professional Development

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

Tashkent State University of Economics

E-mail: husniddinbest@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Posthumanism, ecocentrism, technocentrism, environmental ethics, anthropogenic, technoecocentrism, paradigm, deep ecology.

Received: 27.11.25

Accepted: 28.11.25

Published: 29.11.25

Abstract: This article examines the philosophical and anthropological relationship between humans and nature in the context of posthumanist ethics and the dilemma of ecocentrism and technocentrism. It examines the transformation of traditional moral norms in light of the expanding technological capabilities of humans. The author analyzes the contradiction between the fundamental dilemma of ecocentrism and technocentrism and provides a scientific and philosophical justification for a fundamental rethinking of human environmental responsibility within the context of posthumanist ethics.

POSTGUMANISTIK ETIKA SHAROITIDA INSON VA TABIAT MUNOSABATINING FALSAFIY-ANTROPOLOGIK TAHLILI: EKOTSENTRIZM VA TEXNOTSENTRIZM DILEMMASI

Xusniddin Akbarovich Alikulov

Kasb mahoratini oshirish markazi bo'lim boshlig'i

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: husniddinbest@gmail.com

Toshkent O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Postgumanizm, **Annotatsiya:** Ushbu maqolada ekotsentrizm, texnotsentrizm, ekologik etika, postgumanistik etika sharoitida inson va tabiat

antropogen, texno-ekotsentrizm, paradigma, chuqur ekologiya.

munosabatining falsafiy-antropologik tahlili, ekotsentrizm va texnotsentrizm dilemmasi tahlil qilingan. Maqolada insonning texnologik imkoniyatlarining kengayishi tufayli an'anaviy axloqiy me'yorlarning o'zgarishi o'rganilgan. Muallif ekotsentrizm va texnotsentrizm o'rtasidagi fundamental dilemma o'rtasidagi ziddiyatni tahlil qilib, postgumanistik sharoitda insonning ekologik mas'uliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish zaruratini ilmiy-falsafiy jihatdan asoslagan.

ФИЛОСОФСКО-АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТНОШЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА И ПРИРОДЫ В КОНТЕКСТЕ ПОСТГУМАНИСТИЧЕСКОЙ ЭТИКИ: ДИЛЕММА ЭКОЦЕНТРИЗМА И ТЕХНОЦЕНТРИЗМА

Хусниддин Акбарович Аликулов

Заведующий отделом Центра повышения квалификации

Доктор философских наук (PhD)

E-mail: husniddinbest@gmail.com

Ташкентский государственный экономический университет

Ташкен, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Постгуманизм, экоцентризм, техноцентризм, экологическая этика, антропогенный, техноэкоцентризм, парадигма, глубинная экология.

Аннотация: В статье анализируется философско-антропологический анализ взаимоотношений человека и природы в контексте постгуманистической этики, дилеммы экоцентризма и техноцентризма. В статье рассматривается трансформация традиционных моральных норм в связи с расширением технологических возможностей человека. Автор анализирует противоречие фундаментальной дилеммы экоцентризма и техноцентризма и научно-философски обосновывает необходимость фундаментального переосмысления экологической ответственности человека в контексте постгуманистической этики.

Kirish. Zamonaviy dunyoda inson va tabiat munosabatlarning o'zgarishi - global ekologik inqiroz va texnologik rivojlanish o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi bilan bog'liq ravishda kechmoqda. Postgumanizm etikasi sharoitida bu munosabatlar yangi falsafiy-antropologik mezonlarga ega bo'lmoqda, chunki, insonning "tabiiy" holatidan chiqishi (masalan, biotexnologiyalar va sun'iy intellekt orqali) tabiat bilan munosabatni qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Bugungi kunda antropotsentrizm (inson markazchilik g'oyasi) tanqidi kuchayib,

ekotsentrizm (tabiat markazchilik g'oyasi) va texnotsentrizm (texnologiya markazchilik g'oyasi) kabi muqobil ilmiy yo'nalishlar muhokama markazida turadi. Bu dilemma postgumanizm kontekstida insonning tabiatga nisbatan rolini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi, ammo shu bilan birga yangi axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi [1].

Inson faoliyatining planetar miqyosdagi ta'siri (iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi, Markaziy Osiyodagi Orol fojiasi kabi ekologik inqirozlar) gumanistik falsafaning asosiy postulatlarini jiddiy sinovdan o'tkazmoqda. An'anaviy antropotsentrizm – insonni borliqning markazi va tabiatni cheksiz resurs manbai deb bilish – ekologik xavfsizlikni ta'minlashda samarasiz yondashuv ekanligi e'tirof etilmoqda. Bu esa ijtimoiy falsafa oldiga inson-tabiat munosabatining yangi falsafiy-antropologik asoslarini ishlab chiqish vazifasini qo'ymoqda. Postmodernizmning asosiy tanqididan kelib chiqqan postgumanistik etika [2] – insonni mutlaq, yakka sub'ekt sifatidagi maqomidan voz kechish va uning atrof-muhit, boshqa tirik jonzorlar va texnologiyalar bilan o'zaro bog'liqligini tan olishga asoslangan bo'lib, bu munosabat ekologik muammolarga yechim izlashda ekotsentrizm (tabiatning o'ziga xos qadriyati borligi) va texnotsentrizm (muammolarni texnologik yechimlar orqali hal qilish) o'rtasidagi dilemmani keltirib chiqaradi. Ushbu dilemmaning falsafiy-antropologik tahlili esa nafaqat akademik, balki amaliy siyosiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Global ekologik harakatlarning asosini tashkil etuvchi ekotsentrizm insonning tabiatga bo'lgan har qanday intervensiyasini cheklashni talab qilsa [3], zamonaviy iqtisodiy rivojlanishga asoslangan texnotsentrizm insonning tabiatni nazorat qilish va uni texnologik vositalar bilan tiklash qobiliyatiga nisbatan nekinlikni saqlab qoldi [4].

Asosiy qism. Inson va tabiat munosabatidagi falsafiy qarashlar tarixan antropotsentrizm yondashuvi bilan boshlangan. Bu konsepsiyaning ildizlari qadimgi Yunonistonga, xususan, Protagorning “Inson barcha narsalarning o'lchovidir” degan g'oyasiga borib taqaladi. Zamonaviy davrda esa Rene Dekart [5] va Immanuil Kant [6] kabi klassik gumanistlar insonni aql egasi sifatida tabiatdan ajratib, uni tabiatni boshqaruvchi yagona sub'ekt darajasiga ko'tarishdi. Dekartning dualistik falsafasi (ruh va moddaning ajralishi) tabiatni jonsiz, faqat inson manfaati uchun xizmat qiluvchi “mexanizm” sifatida ko'rishga xizmat qildi, bu esa o'z navbatida hozirgi ekologik inqirozning asosiy falsafiy sababi sifatida tanqid qilinadi [2].

Antropotsentrizmga javoban, XX asr o'rtalarida ekotsentrizm konsepsiyasi shakllandi. Bu yo'nalishning eng yorqin namoyandalaridan biri Leopold Aldo [3] o'zining “Yer etikasi” (Land Ethic) konsepsiyasida tabiiy muhitning o'ziga xos, ichki qadriyati mavjudligini va inson faqatgina ushbu “jamo”ning a'zosi ekanligini ta'kidladi. Ekotsentrizmning fundamental shakli bo'lgan “Chuqur ekologiya” (Deep Ecology) konsepsiyasi norvegiyalik faylasuf Arne Ness [7] tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u inson hayotini saqlab qolish uchun ham tabiiy tizimlarning rang-

barangligi va mustaqilligini saqlashni talab qiladi. Bu konsepsiya insonning tabiatga bo'lgan har qanday hukmronligini inkor etish va uning o'rnini pasaytirishni taklif qiladi. Ekotsentrizm har qancha axloqiy jihatdan muhim bo'lmasin, u insonning texnologik imkoniyatlarini to'liq hisobga olmaydi va amaliyotda ko'pincha romantik va noreal sifatida tanqid qilinadi.

XXI asr boshida, bioinjeneriya, kibernetika va global virtual tarmoqlarning rivojlanishi ortidan, postgumanizm falsafiy oqimi paydo bo'ldi. Postgumanizm klassik gumanizmning insonni mutlaq, ratsional, yagona shaxs sifatidagi tasavvurini tanqid qiladi. Rozi Braydotti [2] postgumanistik sub'ektni o'zgaruvchan va gibril mavjudot sifatida tasvirlaydi, uning ontologik maqomi faqat insoniy elementlar bilan emas, balki texnologik va ekologik noinsoniy agentlar bilan o'zaro aloqada shakllanadi.

Inson-tabiat munosabatlarining falsafiy-antropologik tahlili postgumanizm sharoitida antropotsentrizmning tanqididan boshlanadi. Inson tabiatni resurs sifatida ko'rishdan chiqib, uni holatik birlik sifatida qabul qila boshlaydi, bu esa ekologiya va texnologiya orasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Postgumanizm insonning tabiatga nisbatan roli qayta aniqlanadi: inson endi tabiatning hukmroni emas, balki uning bir qismi sifatida ko'riladi, lekin texnologiya bu munosabatni o'zgartirishi mumkin. Masalan, postgumanizm insonning ekzistensial, antropologik va aksiologik o'zgarishlarini falsafiy jihatdan o'rganadi, bu inson-tabiat munosabatlarining yangi shakllarini yaratishga olib keladi. Bu tahlilda postgumanizm insonning tabiat bilan munosabatini qayta ta'riflash orqali yangi axloqiy normalarni shakllantiradi.

Ekotsentrizm va texnotsentrizm orasidagi ziddiyat postgumanizm sharoitida kuchayadi. Ekotsentrizm tabiatni saqlashni ustun qo'ysa, texnotsentrizm texnologik o'zgartirishlar orqali muammolarni hal qilishni taklif etadi, bu esa inson hubrisi (haddan tashqari o'ziga ishonch) ning ifodasi sifatida ko'riladi. Bu dilemma postgumanizm texnologiyaning inson-tabiat munosabatiga ta'sirini ko'rsatadi, masalan, texnologiya tabiatni boshqarishga yordam beradi, lekin yangi risklarni yaratishi mumkin. Texnotsentrizm ekologiya muammolarini hal qilish uchun inson tafakkuriga tayanadi, lekin ekotsentrizm buni passiv va tabiatning o'ziga xosligini e'tiborsiz qoldiruvchi deb hisoblaydi. Quyidagi jadvalda bu dilemmaning asosiy aspektlari aks etgan:

1-jadval

Aspekt	Ekotsentrizm	Texnotsentrizm
Markaz	Tabiat va ekotizim	Texnologiya va inson
Axloqiy tamoyil	Tabiat huquqlari	Texnologik progress
Misollar	Milliy parklarni saqlash	Iqlim muhandisligi va GMO
Risklar	Passivlik va rivojlanishning cheklanishi	SI va yangi ekologik muammolar

Mazkur dilemma postgumanizmida sintez imkoniyatlarini yaratishi mumkin, lekin uning hal qilinishi inson-tabiat munosabatlarining kelajagini belgilaydi.

Postgumanizmning asosiy falsafiy-antropologik natijasi – bu agentlik tushunchasining kengayishidir. Endi faqat insongina faol harakat qiluvchi sub’ekt emas; texnologiyalar, hayvonlar, hatto iqlim tizimlari ham o’z harakatlari bilan (masalan, sunami, pandemiya) inson hayotiga sezilarli ta’sir ko’rsata oladi. Postgumanistik falsafa tabiatni passiv ob’ekt sifatida emas, balki inson bilan birgalikda axloqiy va ontologik munosabatlarni shakllantiruvchi faol hamkor sifatida o’rganishni taklif qiladi. Bu esa inson va tabiat o’rtasidagi munosabatni nafaqat axloqiy, balki yangi ontologik darajada ham qayta ko’rib chiqishni talab qiladi.

Tabiatga bo’lgan munosabatdagi ikkinchi asosiy oqim – bu texnotsentrizm bo’lib, u ekologik muammolarning yechimini, birinchi navbatda, ilm-fan va texnologiya taraqqiyotida ko’radi. Texnotsentrizm, asosan, ekologik modernizatsiya nazariyasi [8] bilan bog’liq bo’lib, u tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va toza energiya texnologiyalari orqali iqtisodiy o’sishni ekologik talablar bilan uyg’unlashtirishni maqsad qiladi.

Biroq, texnotsentrizm Ulrich Bek [9] tomonidan ishlab chiqilgan “Xatar jamiyati” (Risk Society) konsepsiyasi nuqtai nazaridan jiddiy tanqid qilinadi. Bekning fikricha, sanoat rivojlanishi bizni tabiatning tashqi xavf-xatarlaridan himoya qilgani holda, o’z-o’zidan kelib chiqadigan, global va bashorat qilib bo’lmaydigan texnogen xatarlarni (yadroviy falokat, sun’iy intellektning noma’lum oqibatlari) yaratadi. Bu xatarlar esa insonning axloqiy va ijtimoiy nazoratidan tashqaridadir.

Postgumanistik etikaning vazifasi – texnotsentrizmning pragmatik samaradorligini tan olgan holda, uning axloqiy xavf-xatarlarini (texnoetika) nazorat qilishning yangi falsafiy mexanizmlarini topishdir. Bu Hans Yonasning “Mas’uliyat prinsipi” [10] talabiga mos keladi, unga ko’ra, inson o’z texnologik kuchining oqibatlari uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishi zarur.

Xulosa. Postgumanistik etika sharoitida inson va tabiat munosabatlarining falsafiy-antropologik tahlili orqali ekotsentrizm va texnotsentrizm orasidagi dilemmaning asosiy jihatlarini ilmiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish - postgumanizm insonning biologik chegaralarini texnologik o’zgartirishlar orqali kengaytirib, tabiat bilan munosabatni qayta ta’riflaydi, bu esa antropotsentrizmdan chiqishni va yangi axloqiy paradigmalarni shakllantirishni talab etadi. Ekotsentrizm tabiatning o’ziga xos qiymatini ta’kidlab, insonni ekotizimning bir qismi sifatida ko’rsa, texnotsentrizm texnologiyani muammolarni hal qilish vositasi deb hisoblaydi, ammo bu ikki yondashuv orasidagi ziddiyat postgumanizmida sintez imkoniyatlarini yaratishi mumkin. “Texno-ekotsentrizm” kabi yangi paradigma inson-tabiat munosabatlarini hamohang qilishga olib keladi, bu global ekologik inqirozlarning oldini olish uchun muhimdir. Pirovardida, dilemmaning

hal qilinishi postgumanizmning kelajagini belgilab, insonni tabiat bilan hamkorlikda rivojlantirishning yangi modellarini taklif etadi.

Mavzuning ilmiy ahamiyati falsafiy va antropologik sohalarda yangi o'lchovlarni ochib berishda namoyon bo'ladi, chunki u antropotsentrizmning tanqidi orqali postgumanizmning axloqiy asoslarini chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Amaliy jihatdan esa, bu dilemmaning yechimi barqaror rivojlanish siyosatini shakllantirish, ta'lim va texnologik innovatsiyalarni ekologik normalarga moslashtirish uchun tavsiyalar beradi, bu kelgusi avlodlar uchun tabiatni saqlashning samarali yo'llarini yaratishga xizmat qiladi. Shunday qilib, postgumanizm sharoitidagi bu dilemma faqat nazariy muammo emas, balki global rivojlanishning muhim elementlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC12152000/>
2. Braidotti, R. (2013). *The Posthuman*. Polity Press.
3. Леопольд Олдо. Календарь песчаного графства. Москва.: «Мир». 1983 г.
4. Glikson, A. Y. (2013). The Anthropocene: An ecological crisis in the face of the technological fix. *Anthropocene*, 3, 1-7.
5. Декарт Р. Сочинения в 2-х томах т.1 (Философское наследие т.106) Издательство: Мысль. 1989 г.
6. Kant, I. (1998). *Groundwork of the Metaphysics of Morals*. Cambridge University Press.
7. Naess, A. (1973). The Shallow and the Deep, Long-Range Ecology Movement. *Inquiry*, 16(1-4), 95-100.
8. Latour, B. (2005). *Reassembling the Social: An Introduction to Actor-Network-Theory*. Oxford University Press.
9. Бек Ульрих. Общество риска. На пути к другому модерну. Москва.: Прогресс-Традиция. 2000 г.
10. Jonas, H. (1984). *The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age*. University of Chicago Press.